

Peyzaj




Peyzaj tog', o'rmon, daryo, bulut, dala va osmon kabi tabiat manzarasi tasviridir. Har bir rassom atrof-muhitni o'zicha ko'radi va uning kayfiyati, yorug'ligi, kengligi hamda chuqurligini san'at ixlosmandlariga yetkazishga harakat qiladi. Rasm ifodali chiqishi uchun rassom ufq chizig'idan foydalanadi.

Ufq chizig'i – yer va osmon o'rtasidagi chegara. Tasviriy san'atda bu muhim kompozitsiya elementi bo'lib, uning yordamida rassom dunyoni qanday ko'rishini san'at muxlislariga aytib beradi.

Agar ufq chizig'i **pastroq** bo'lsa, rasmda osmon, havo va makon kengroq ko'rinishga ega bo'ladi. Bunday kompozitsiya kishida makonni his qilish tuyg'usini uyg'otadi.



Agar ufq chizig'i **yuqoriroq** bo'lsa, ko'z o'ngimizda yer yuzidagi detallar ko'proq ko'rinsa boshlaydi. Bu xuddi balandlikdan qaragandek taassurot uyg'otadi.



O'rta ufq chizig'i qog'oz varag'ining o'rta-sidan o'tib, uni ikkita bir xil: osmon-suv va osmon-yer qismlariga bo'ladi.





Ufq chizig'idan foydalanib **peyzaj**, ya'ni tabiat manzarasi tasvirini chizing.

Rasm chizish bosqichlari:

1. Qog'oz varag'i o'rtasidan uni teng ikkiga bo'luvchi **ufq chizig'i** o'tkazing. **Uylar uchun tik chiziqlar** chizing.
2. **Deraza** va **eshiklarni** chizing. Daraxt va butalar kabi **detallarni** qo'shing.
3. **Fonni** moviy rangga bo'yang.
4. **Uylarni** yorqin ranglarga bo'yang, ularning suvdagi aksini esa oq bo'yoq yordamida ochroq rangda tasvirlang.
5. Quruq mo'yqalamga oq bo'yoq olib, ohista harakatlar bilan **suv yuzida aks etgan shu'lalarni** chizing.



